



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№6(3)

2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 246 sahifa,
9-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'zbek bolalar folklorining etnopsixologik jihatlarini o'rganishning ahamiyati.....	10
<i>Alimbayeva Shaxlo Tursunovna</i>	
The Convergence of Educational Paradigms: Policy Borrowing, Adaptability, and Institutional Reform in Uzbekistan's Modern School System	15
<i>Lola Rakhmonovna Djurakulova, Karina Eduardovna Bushevskaya</i>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida valeologik kompetensiyalarni rivojlantirish	21
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li, Mamatqulov Davronbek Abdig'apparovich</i>	
Autizm spektridagi buzilishlarga ega bolalar rivojlanishida STEAM ta'lim texnologiyasining pedagogik ahamiyati.....	25
<i>Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Zuhra Adizovna</i>	
Ozodlikdan mahrum qilingan shaxsning jazoni ijro etish muassasasidagi moslashuvining psixologik xususiyatlari	30
<i>Saydullayeva Muxabbat Abdullayevna</i>	
Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati.....	33
<i>Shodiyeva Gulruh Xayrullayevna, Ergasheva Farog'at</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida gamifikatsion topshiriqlar asosida divergent fikrlashni shakllantirishning didaktik mexanizmlari.....	37
<i>Jalilov Muhammadali Abdumutalibovich, Saloydiovva Sevaraxon Mahammadsharif qizi</i>	
Darsdan tashqari mashg'ulotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirish	41
<i>Sayfiddinova Muxlisa Sayfiddinovna</i>	
Harbiy xizmatchilar oilalarida inqirozlarni profilaktika qilishda ijtimoiy-psixologik xizmatlarning o'rni	45
<i>Sh. S. Kurbanova</i>	
Yosh onalarning pedagogik kompetensiyalariga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar	49
<i>Yuldasheva Zulayxo Sadullayevna</i>	
Роль нарративно-экспозиционной терапии при работе с детьми, репатрированными из ЗОН вооружённых конфликтов	53
<i>Юлдашев Санжар Рузимуродович</i>	
Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar: muammo va uning yechimlari.....	57
<i>Mamatova Karomat Ilhomjonovna</i>	
Bitiruvchi sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish jarayonlarida individual yondashuvning ahamiyati ...	61
<i>Asilova Sanobar Xatamboevna</i>	
Optika bo'limini o'qitishning didaktik asoslari.....	66
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Shomurodova Maftuna Tolibjon qizi, Rayimova Muazzam Xolbobo qizi</i>	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarida kompyuter grafikasiga oid kompetensiyalarni rivojlantirish uchun Gamified Project-Based Learning asosidagi integrativ metodika ishlab chiqish	69
<i>D. Y. Pulatova, G' R. Berdiyev</i>	
Psixologik savodxonlikning o'smirlar akademik savodxonligiga ta'siri.....	76
<i>Fayzullayev Mirzaodil Mirzamurodovich</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika darslarida loyihaviy ta'limni qo'llashning pedagogik asoslari	81
<i>Ismonov Turgunpulat To'liqinovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning tabiatga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda mashg'ulot, ekskursiya va sayrlardan foydalanish metodikasi.....	84
<i>Maripova N. X.</i>	
Individual yondashuvga asoslangan pedagogik mexanizmlarni amaliyotga joriy etish metodikasi	88
<i>Nurova Malika Abduzairovna</i>	



Communicative Learning as a Basis for Critical Thinking Development	92
<i>Petrosyan Nelya Valerevna, Khalilova Farangiz Khoshimovna</i>	
Nikohdan oldingi hissiy-emotsional kompetentlikni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik omillari	97
<i>Raximova Gulxayo Alisherovna</i>	
Talabalarda chidamkorlikni rivojlantirishning ahamiyati	100
<i>Shaalimov Muxtorsha Atxamovich</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ertaklar orqali tarbiya berish usullari	105
<i>X. Sh. Ochilova</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol ta'lim texnologiyalarining samaradorligi	109
<i>Xalilova Dilnoza Furkatovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kitobxonlik madaniyatini kreativ yondashuvlar asosida shakllantirish imkoniyatlari	112
<i>Xolyigitova Bahoroy Kimsanboyevna</i>	
Bo'lajak buxgalteriya hisobi va audit sohasidagi talabarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari	117
<i>Arziyeva Visola Namozovna</i>	
Boshlang'ich ta'lim mazmunini tizimlashtirishning didaktik va aksiologik tamoyillari	121
<i>Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna</i>	
Munis Xorazmiy devonining o'rganilishi va uning tarixiy-etimologik tahlili	125
<i>Sharopova Durdona Azim qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar asosida pedagogik kompetensiyalarni takomillashtirish asoslari	129
<i>Tashmatova Gulzoda</i>	
Maktabgacha ta'limda steam yondashuvining didaktik imkoniyatlari	133
<i>To'xtaboyeva Maftunaxon G'aniyevna</i>	
Raqamli pedagogikaning zamonaviy ta'lim rivojlanishidagi o'rni	137
<i>Tojiyeva Asila Abdimannon qizi, Pardayeva Ra'no Eshboyevna</i>	
Talabalar jamoasida uchraydigan nizoli vaziyatlarning diagnostik tahlili	142
<i>Vaxobova Muxtabar Nurmuhimmat qizi</i>	
Kreativ yondashuv asosida talabalarning kasbiy sifatlarini shakllantirish	146
<i>Xolmatova Gulhayo Ulug'bekovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasining psixologik asoslari	151
<i>Xurvaliyeva Tarmiza Latipovna</i>	
Umumta'lim maktab direktorlarining boshqaruv samaradorligini oshirishda media va axborot savodxonligini rivojlantirish modelini takomillashtirish	156
<i>Abdulxakimova Ziyoda Latibjon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsda muammoli STEAM loyihalarini yaratish ko'nikmalarini rivojlantirish	161
<i>M. S. Achilova</i>	
Optik tushunchalarni shakllantirish metodikasi	165
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Cho'liyeva Sofiya Sobirjon qizi, Shog'dorova Moxinur Bobomurot qizi</i>	
PHET simulyatsiyalari yordamida optikani o'rgatish	169
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Toshmirzayeva Buvioysha Panji qizi, Ruziyeva Jasmina Sirojiddin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy fikrlashini o'ziga xos jihatlari	173
<i>Gafurova Shoxista Erali qizi</i>	
O'zbekiston hududlarida yengil atletika infratuzilmasi va sportchilar tayyorlash tizimini tashkiliy-boshqaruv asoslari	178
<i>Hakimova Mushtariybonu Hamidovna, Tursunpolatova Ziyoda Jahongir qizi</i>	
O'zbekistonda mustaqil fikrlash muammosi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili	181
<i>Tursunova Dilbar Zafarovna</i>	

MUNDARIJA	CONTENTS	Methodology for Developing Competencies in Primary Education and the Communicative Analysis of Oral Speech.....	184
		Turumbetova Aygul Yusupbaevna	
		Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "Tarbiya" darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga o'rgatish metodikasi.....	189
		Ummatkulova Sayyora Shovkatovna	
		Boshlang'ich sinflarda matematika ta'limini tashkil etish.....	191
		Saydullayeva Shabbona Ashraf qizi, Axtamqul Azamqulov, Anvar Yusupov	
		Metakognitiv xabardorlik ko'rsatgichlarining ta'lim shakliga bog'liqligi.....	195
		Ermatova Robiya Bekjonali qizi	
		The Integration of Artificial Intelligence Technologies in Esp Instruction: Enhancing Professional Communicative Competence in Higher Education.....	199
		Ismailova Shaira Ferdausovna	
		Intercultural Communicative Competence in English Language Teaching: Preparing Global Learners	204
		Maqsudova Gulnoz Olimovna	
		Teaching Reading Through Multimodal Texts: Enhancing Comprehension and Engagement in EFL Classrooms.....	208
		Norboyeva Shahnoza Jo'rabek qizi	
		Digital Technologies and Cognitive Competence Development in English Language Teaching.....	212
		Sharipova Muhabbat Erkinovna	
		Raqamli ta'lim muhitida sun'iy intellektga asoslangan elektron o'quv resurslarini loyihalashning konseptual-pedagogik asoslari va didaktik muammolar tahlili.....	216
		Shirinov Feruzjon Shuxratovich, Raxmonov Ziyodillo Xusanovich	
		Boshlang'ich ta'limda timss mezonlari: kontekstli muammolarga yondashuv	222
		Yo'ldoshev Farhodjon Baxtiyor o'g'li	
		O'qituvchilarning qadriyatlari va stressga barqarorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning psixologik tahlili	227
		Yuldashova Dilafuz Shavkatovna	
		Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish pedagogik muammo sifatida	229
		Safarova Madina Azamat qizi	
		Социально-психологические особенности отношения студентов к использованию искусственного интеллекта chatgpt в образовательной деятельности.....	233
		Аскарлова Гулрух Оринбасаровна	
		Диалог культур в произведениях русскоязычных писателей Узбекистана XXI века	239
		Чернова Татьяна Алексеевна, Отакулов Фолиб	
		Русский язык как пространство межкультурной коммуникации в литературе Узбекистана	242
		Чернова Татьяна Алексеевна, Имамов Жавлонбек, Абдурахмонов Элбек	

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING TABIATGA OID KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA MASHG'ULOT, EKSKURSIYA VA SAYRLARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Maripova N. X.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
Maktabgach va boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning tabiatga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda mashg'ulot, ekskursiya va sayrlardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Tabiat bilan bevosita muloqot qilish orqali bolalarda ekologik bilim, ko'nikma va qadriyatlarini shakllantirishning metodik asoslari tahlil qilingan. Shuningdek, mashg'ulot, ekskursiya va sayrlarni samarali tashkil etish usullari hamda ularning bolalarning bilish faolligi va ekologik madaniyatini rivojlantirishdagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, tabiatga oid kompetensiyalar, ekologik tarbiya, mashg'ulot, ekskursiya, sayr, pedagogik metodlar, ekologik madaniyat.

Abstract: This article highlights the pedagogical potential of using lessons, excursions, and walks in developing nature-related competencies among preschool children. The methodological foundations for forming ecological knowledge, skills, and values through direct interaction with nature are analyzed. The study also reveals effective approaches to organizing lessons, excursions, and walks, as well as their significance in enhancing children's cognitive activity and ecological culture.

Key words: preschool education, nature-related competencies, environmental education, lessons, excursions, walks, pedagogical methods, ecological culture.

Аннотация: В данной статье раскрываются педагогические возможности использования занятий, экскурсий и прогулок в развитии природоведческих компетенций детей дошкольного возраста. Проанализированы методические основы формирования экологических знаний, умений и ценностей у детей посредством непосредственного общения с природой. Также освещены эффективные способы организации занятий, экскурсий и прогулок, а также их значение в развитии познавательной активности и экологической культуры дошкольников.

Ключевые слова: дошкольное образование, природоведческие компетенции, экологическое воспитание, занятия, экскурсия, прогулка, педагогические методы, экологическая культура.

KIRISH

Bugungi kunda ekologik muammolarning global tus olishi yosh avlodga tabiatga ongli munosabatni shakllantirish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Ayniqsa, maktabgacha yosh davri bolaning shaxs sifatida shakllanishida muhim bosqich hisoblanib, aynan shu davrda tabiat haqidagi dastlabki tasavvurlar, ekologik bilimlar va qadriyatlar tarkib topadi. Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tabiat bilan tanishtirish ta'lim-tarbiya jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Tabiat bilan tanishtirish jarayoni bolalarning atrof-muhit haqidagi bilimlarini boyitish, kuzatuvchanlik, tafakkur, nutq, estetik did hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur jarayon mashg'ulotlar, ekskursiyalar va sayrlar orqali amalga oshiriladi. Ushbu shakllar bolalarning tabiat hodisalari va obyektlarini bevosita idrok etishlari, shuningdek, amaliy faoliyat orqali o'z bilimlarini mustahkamlashlari uchun qulay imkoniyat yaratadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish masalasi ko'plab pedagog va psixolog olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, Konstantin Dmitrievich Ushinskiy bolalarni tabiat bilan tanishtirishni tarbiyaning muhim vositasi sifatida baholab, tabiat insonning aqliy, axloqiy va estetik rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatishini ta'kidlagan. Uning fikricha, tabiat bolalar uchun eng tabiiy va samarali ta'lim manbai hisoblanadi.

Vasiliy Aleksandrovich Suxomlinskiy esa bolalar qalbida tabiatga muhabbatni shakllantirish orqali ularda insonparvarlik, mehr-oqibat va go'zallikni his etish tuyg'ulari rivojlanishini qayd etadi. Olimning ta'kidlashicha, tabiat qo'ynida tashkil etilgan mashg'ulotlar bolaning ma'naviy kamolotiga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim nazariyasi vakillaridan Yelizaveta Ivanovna Tixeyeva bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida kuzatish metodining alohida ahamiyatini ko'rsatgan. U bolalar tabiat hodisalarini bevosita kuzatish orqali ularning sabab va oqibatlarini tushunishga, mantiqiy fikrlash hamda nutq faoliyatini rivojlantirishga erishishini asoslab bergan.

Psixologik nuqtai nazardan, Lev Semenovich Vigotskiy bolaning bilish jarayonlari faoliyat va muloqot orqali rivojlanishini ta'kidlaydi. Tabiat bilan bevosita muloqot qilish jarayonida bolalarda sezgi, idrok, tafakkur va nutq faoliyatlari takomillashadi. Shuningdek, Jan Piaje maktabgacha yoshdagi bolalar konkret obrazlar va amaliy tajriba asosida bilimlarni o'zlashtirishini qayd etib, tabiatni kuzatish va tajriba faoliyati ushbu yosh davri uchun eng samarali ta'lim vositalaridan biri ekanligini ko'rsatgan.

Shu bois maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishning asosiy maqsadi ularda tabiat haqidagi elementar ilmiy tasavvurlarni shakllantirish, ekologik madaniyatni rivojlantirish hamda tabiatni asrashga bo'lgan mas'uliyatli munosabatni tarkib toptirishdan iboratdir. Olimlarning fikrlariga ko'ra, tabiat bilan muntazam muloqot qilish bolaning intellektual, hissiy, axloqiy va estetik rivojlanishini ta'minlaydi, unda atrof-muhitga ongli munosabat hamda ekologik mas'uliyat hissini shakllantiradi.

Ekskursiyalarning ahamiyatini yoritishda Anton Semenovich Makarenko bolalarni jamoaviy faoliyatga jalb etish va amaliy tajriba orqali tarbiyalash g'oyasini ilgari surgan. Uning fikricha, ekskursiyalar bolalarda kuza-tuvchanlik, mehnatsevarlik va jamoada hamkorlik qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, Vasiliy Aleksandrovich Suxomlinskiy ekskursiyalarni "tabiat maktabi" deb atab, bolalarda tabiatni sevish va uni asrashga bo'lgan ehtiyojni shakllantirishda ularning beqiyos ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan.

Demak, pedagog va psixolog olimlarning ilmiy qarashlari maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayoni ularning har tomonlama rivojlanishida muhim omil ekanligini, mashg'ulotlar va ekskursiyalar esa ushbu maqsadni amalga oshirishning eng samarali pedagogik shakllari hisoblanishini tasdiqlaydi.

TADVIQOT METODOLOGIYASI

Psixolog va pedagog olimlarning tadqiqotlariga ko'ra, maktabgacha yoshdagi bolalar tabiat obyektlarini kuzatish jarayonida sezgi, idrok, tafakkur va nutq faoliyatlarini faol rivojlantiradilar. Tabiat bilan muloqot qilish bolaning hissiy dunyosiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, unda go'zallikni his etish, hayvonlar va o'simliklarga nisbatan g'amxo'rlik tuyg'ularini rivojlantiradi.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirish quyidagi vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi:

- tabiat haqidagi dastlabki bilimlarni shakllantirish;
- ekologik madaniyat asoslarini rivojlantirish;
- kuzatuvchanlik va qiziquvchanlikni oshirish;
- mehnatsevarlik hamda mas'uliyat hissini tarbiyalash;
- estetik did va ijodiy tafakkurni rivojlantirish;
- tabiatni muhofaza qilishga oid ko'nikmalarni hosil qilish.

Mashg'ulotlarning o'rni va tashkil etish metodikasi. Mashg'ulot maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tabiat bilan tanishtirishning asosiy tashkiliy shakllaridan biri hisoblanadi. Mashg'ulotlar davomida bolalar o'simliklar, hayvonlar, fasllar, ob-havo hodisalari va ekologik jarayonlar haqida tizimli bilimlarga ega bo'ladilar.

Tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlari quyidagi turlarga bo'linadi:

- yangi bilim beruvchi mashg'ulotlar;
- bilimlarni mustahkamlovchi mashg'ulotlar;
- umumlashtiruvchi mashg'ulotlar;
- tajriba va kuzatish mashg'ulotlari;
- integrallashgan mashg'ulotlar.

Mashg'ulotlarni tashkil etishda tarbiyachi bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olishi zarur. Ko'rgazmalilik, amaliy faoliyat hamda o'yin elementlaridan foydalanish mashg'ulot samaradorligini oshiradi. Ayniqsa, muammoli vaziyatlar yaratish, savol-javob, suhbat, kuzatish va tajriba metodlaridan foydalanish bolalarda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ekskursiyalarning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati

Ekskursiya bolalarni tabiat bilan tanishtirishning eng samarali shakllaridan biri bo'lib, u bolalarning tabiat obyektlarini tabiiy muhitda kuzatishlariga imkon yaratadi. Ekskursiyalar jarayonida bolalar o'simlik va hayvonot dunyosi, fasliy o'zgarishlar hamda inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni bevosita idrok etadilar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekskursiya bolalarni tabiat va ijtimoiy muhit bilan bevosita tanishtirishning samarali tashkiliy shakllaridan biri hisoblanadi. Ekskursiyalar mazmuni, maqsadi va pedagogik vazifalariga ko'ra asosan ikki yo'nalishda tashkil etiladi.

Birinchi yo'nalish bog'lar, xiyobonlar va boshqa tabiiy hududlarga uyushtiriladigan ekskursiyalarni o'z ichiga oladi. Mazkur ekskursiyalar jarayonida bolalar o'simliklar olamining xilma-xilligi, mavsumiy o'zgarishlar, tabiat hodisalari hamda ekologik jarayonlarni bevosita kuzatish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Natijada ularda tabiat haqidagi elementar ilmiy tasavvurlar, kuzatuvchanlik ko'nikmalari va tabiatga nisbatan ehtiyotkorona munosabat shakllanadi.

Ikkinchi yo'nalish qishloq xo'jaligi va fermer xo'jaliklariga tashkil etiladigan ekskursiyalarni qamrab oladi. Bunday ekskursiyalar bolalarni qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish jarayoni, mehnat faoliyatining mazmuni va ahamiyati hamda insonning tabiatdan oqilona foydalanish tajribasi bilan tanishtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ular bolalarda mehnatsevarlik, mas'uliyatlilik va inson mehnatiga hurmat kabi ijtimoiy-xalqiy sifatlarni rivojlantirishga ko'maklashadi.

Ekskursiyalarni tashkil etish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Tayyorgarlik bosqichi.
2. Ekskursiyani o'tkazish bosqichi.
3. Yakuniy tahlil va mustahkamlash bosqichi.

Ekskursiya davomida bolalar kuzatish kundaliklarini yuritishlari, tabiiy materiallarni to'plashlari hamda oddiy tajribalar o'tkazishlari mumkin. Bu esa olingan bilimlarning mustahkam bo'lishini ta'minlaydi.

Sayrlarning o'rni va pedagogik imkoniyatlari

Sayr maktabgacha ta'lim tashkilotlari kundalik faoliyatining ajralmas qismi bo'lib, bolalarni tabiat bilan muntazam tanishtirib borishning qulay vositasi hisoblanadi. Sayr vaqtida bolalar ob-havo, fasllar almashinuvi, daraxtlar, gullar, qushlar va hasharotlarni kuzatadilar.

Sayrlarning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- tabiat bilan doimiy muloqotni ta'minlaydi;
- bolalarning jismoniy rivojlanishiga xizmat qiladi;
- ekologik tasavvurlarni boyitadi;
- kuzatuvchanlik va tafakkurni rivojlantiradi;
- hissiy-irodaviy sifatlarni shakllantiradi.

Sayr jarayonida didaktik o'yinlar, ekologik topshiriqlar, tajribalar va ijodiy faoliyat elementlaridan foydalanish bolalarning qiziqishini yanada oshiradi.

Tabiat bilan tanishtirishda samarali tashkil etish texnologiyalari

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonini samarali tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Loyihaviy faoliyat texnologiyasi. Loyihalar orqali bolalar tabiat hodisalarini mustaqil o'rganadilar, ma'lumot to'playdilar va amaliy natijalarni taqdim etadilar. Masalan, "Bizning bog'imiz", "Qushlarga g'amxo'rlik qilamiz", "Suv – hayot manbai" kabi loyihalar ekologik tarbiyani rivojlantiradi.

STEAM yondashuvi. STEAM texnologiyasi fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani integratsiyalash orqali tabiat hodisalarini kompleks o'rganish imkonini beradi. Bolalar tajribalar o'tkazish, modellar yaratish va muammoli vaziyatlarga yechim topish orqali faol o'rganadilar.



O'yin texnologiyalari. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yin asosiy faoliyat turi hisoblanadi. Shu sababli ekologik mazmundagi didaktik o'yinlar, rolli o'yinlar va interfaol mashg'ulotlar tabiat haqidagi bilimlarni samarali o'zlashtirishga yordam beradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. Multimedia taqdimotlari, animatsiyalar, elektron resurslar va virtual ekskursiyalar bolalarning tabiat haqidagi tasavvurlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Ushbu texnologiyalar, ayniqsa, kam kuzatiladigan tabiat hodisalarini namoyish etishda samarali hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish ularning ekologik madaniyati, intellektual rivojlanishi va shaxsiy sifatlarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Mashg'ulotlar, ekskursiyalar va sayrlar bolalarning tabiat haqidagi bilimlarini boyitish, kuzatuvchanligini rivojlantirish hamda tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabatni tarbiyalashning samarali vositalari hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, jumladan, loyihaviy faoliyat, STEAM yondashuvi, o'yin va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish tabiat bilan tanishtirish jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shu bois maktabgacha ta'lim amaliyotida mazkur shakl va texnologiyalardan maqsadli hamda tizimli foydalanish ekologik jihatdan ongli, tabiatni qadrlaydigan va asrashga mas'uliyat bilan yondashadigan barkamol avlodni tarbiyalashning muhim omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi vazirligi. Maktabgacha ta'limning davlat o'quv dasturi. - Toshkent, 2022. - 120 b.
2. Kayumova N.M. Maktabgacha pedagogika. - Toshkent: TDPU, 2020. - 256 b.
3. Xasanboyeva O.U., va boshq. Maktabgacha pedagogika. - Toshkent: Ilm Ziyo, 2018. - 320 b.
4. Поддьяков Н. Н. Экологическое воспитание и познавательная деятельность детей. – Москва, 2019. – 240 с.
5. Николаева С. Н. Теория и методика экологического воспитания детей. – Москва, 2021. – 288 с.
6. To'xtayeva M. Maktabgacha ta'limda ekologik tarbiya metodikasi. - Toshkent, 2021. - 184 b.
7. Maripova N.X. O'yinlarning maktabgacha yoshdagi bolalarning hissiy holatiga ta'siri // Maktabgacha ta'lim va tarbiya: zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. - Namangan, 2024. - 28-29 may. - B. 305-307.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.